

BOSHLANG`ICH SINFLARDA FE'L SO`Z TURKUMINI O`RGANILISHI**Omonturdiyeva Shodiya Farxod qizi****Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti****Boshlang`ich ta'lif yo`nalishi****2-kurs talabasi****E-mail: omonturdiyevashodiya@gmail.com****<https://doi.org/10.5281/zenodo.14287944>**

Annotatsiya: Boshlang`ich sinf o`quvchilariga fe'l so`z turkumi haqida asosiy tushunchalar. Fe'l so`z turkumini o`rganishning o`quvchilarga ta`siri, ularning til ko`nikmalarini rivojlantirishdagi roli shuningdek o`yinlar va interaktiv mashqlar orqali qiziqishni oshirish usullari.

Kalit so`zlar: Boshlang`ich sinf, fe'l, ko`nikma, zamon, metodlar.

ИЗУЧЕНИЕ ГРУППЫ ГЛАГОЛ СЛОВО В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ**Omonturdiyeva Shodiya Farkhadovna****Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами****Факультет начального образования****студент 2 курс**

Аннотация: Основные понятия о глаголах для учащихся начальных классов. Влияние изучения глаголов на учащихся, их роль в развитии языковых навыков, а также методы повышения интереса посредством игр и интерактивных упражнений.

Ключевые слова: Основной класс, глагол, навык, время, методы.

STUDYING THE VERB WORD GROUP IN PRIMARY GRADES**Omonturdiyeva Shodiya Farkhadovna****Tashkent State Pedagogical University named after Nizami****Faculty of primary education****2nd year student**

Annotation: Basic concepts about verbs for primary school students. The effect of learning verbs on students, their role in the development of language skills, as well as methods of increasing interest through games and interactive exercises.

Keywords: Primary class, verb, skill, tense, methods.

Tilning qudratli quroli bo`lgan fe'l so`z turkumi insoniyat fikrining harakatini, holatini va mavjudligini ifodalaydi. U gapning qalbini ochib, voqealarni jonlantiradi, xayollarni tarjima qiladi va hissiyotlarni aks ettiradi. Fe'l so`z turkumini chuqur o`rganish tilni tushunish, to`g`ri qo`llash va dunyoni yangicha ko`rishga imkon beradi. Fe'l so`z turkumini o`rganishning maqsadi tilning tuzilishi va qoidalari haqida chuqurroq tushunchaga ega bo`lishdir. Bu bizga grammatik qoidalarni to`g`ri qo`llashga, o`z fikrlarini aniq va ravshan ifodalashga yordam beradi. Shuningdek, fe'l so`z turkumini bilish boshqa so`z turkumlari va grammatik qoidalarni o`rganishni osonlashtiradi. Fe'l so`z turkumining vazifalari juda ko`p va muhimdir. U harakat, holar va mavjudlikni ifodalaydi, gapning grammatik tuzilishini belgilaydi, vaqtini ifodalaydi va shaxsni aks ettiradi. Masalan, “yurmoq”, “o`tirmoq”, “bo`lmoq” fe'llari harakat, holat va mavjudlikni ifodalaydi. Masalan, “yozdi”, “yozyapti”, “yozmoqchi” fe'llari o`tmish, hozirgi va

kelajak vaqtlarni ifodalaydi. “men yozaman”, “sen yozasan”, “u yozadi” fe’llari birinchi, ikkinchi va uchinchi shaxslarni ifodalaydi.

Fe’l so’z turkumini boshlang`ich sinflar o’rganishini bosqichma-bosqich amalga oshirish ishlarini ko`rib chiqsak. Birinchi bosqich: 1-sinfda harakat bildirgan so’zlar ustida ishlash. Bunda harakat bildirgan so’zlar ustida ishlashga tayyorgarlik savodga o’rgatish davrida boshlanadi. Bu davrda o’quvchilarning diqqati harakat bildirgan so’zlarning leksik ma’nosiga qaratiladi. Shaxs va narsaning harakatini bildirishini umumlashtirish imkonini beradigan aniq material yig`iladi. Harakat bildirgan so’zlar ustida ishlash mashqlarini “Alifbe”dagi so’z va matnlarni o’qish, rasmga qarab gap tuzish bilan bog`lab o’tkaziladi. Bunda o’qituvchi o’quvchilar gap tuzishda mazmunga mos harakat bildirgan so’zlarni topishga so’z nimani bildirishini va qanday so’roqqa javob bo`lishini aniqlashga yordam beradigan sharoit yaratadi. Masalan, bolalar kuzda meva va sabzavotlarni, daraxtlarni kuzatib yoki rasmlarni ko`rib gapni mazmunga mos so’zlar bilan to’ldiradilar: *Kuzda mevalar nima qiladi?... (pishadi), sabzavotlar nima qiladi?... (yetiladi), daraxtlar barglari nima qiladi?... (sarg`ayadi). Bolalar nima qilyaptilar?... (dam olyaptilar), ... (o`ynayaptilar), ... (ishlayaptilar)*.

Ikkinchi bosqich: 2-sinfda harakatni bildirgan so’zlarning leksik ma’nosini bilan grammatik ma’nosini (harakat bildirishi) mos keladigan (nima qildi?) *yuguryapti, arralayapti, sakrayapti*, (nima qildi?) *yugurdi, arraladi, sakradi*, (nima qiladi?) *yuguradi, arralaydi, sakraydi* kabi misollardan foydalilaniladi. O’quvchilar o’zlari bajargan harakatlarni aytishni so’rab, ular bergen javobini (harakat bildirgan so’zlarni) so’roqlari bilan xattaxtaga yozib, suhbat o’tkazish bilan tushuntiriladi. O’quvchilar so’roq berish bilan holat bildiradigan *uxlayapti, o`ynayapti, faxrlanadi* kabi so’zlarni ham tanlashga o’rgatib borish muhim ahamiyatga ega. Bunday mashqlar o’quvchilarda shaxs va narsaning harakatini keng ma’noda tushunish ko’nikmasining shakllana borishiga yordam beradi. Bu ikkala bosqich ya’ni 1-2-sinfda morfologik so’roq so’z nimani bildirishini aniqlash maqsadida beriladi. O’quvchilarni so’zga so’roq berishga, o’qituvchi bergen so’rog`iga javob bo`ladigan so’zlarni tanlashga, so’zni so’roqqa mos ravishda o’zgartirishga doir mashqlar bajariladi.

Keyingi bosqich ya’ni 3-sinfda fe’lni o’rganish . Bu bosqichning asosiy vazifasi “fe’l - so’z turkumi” degan tushunchani shakllantirish , bo`lishli va bo`lishsiz fe’llarning ma’nosini va shakliga qarab farqlash ko’nikmasini hosil qilish, bo`lishsizlik qo’shimchasi (-ma)ning talaffuzi va imlosini o’rgatish hisoblanadi. Fe’lning harakat bildirishi yuzasidan o’quvchilarda aniq tasavvur hosil qilish uchun o’qituvchi ularga shu darsdagi mehnat jarayonini tasvirlashni, ya’ni o’quvchilarning o’zlari bajarayotgan ish-harakatni aytishni so’raydi, suhbat o’tkazadi. Suhbatning yoki o’quvchilarning aytgan gaplardan birini gap bo’lagi jihatdan tahlil qilish asosida xulosa chiqariladi: nima qildi?, nima qilayapti?, nima qiladi? kabi so’roqlarga javob bo`lib, shaxs va narsaning harakatini bildirgab so’zlar **fe’l** deb nomlanadi. Fe’l gapda kesim vazifasida keladi. Mavzu yuzasidan o’quvchilarda ko’nikma hosil qilish uchun so’roq berib fe’lni aniqlash, gap mazmuniga mos fe’ni tanlab qo’yish, aralash berilgan so’zlardan, shuningdek, rasmga qarrab gap tuzish, mazmunan va Grammatik tugallanmagan gaplarning mazmuniga mos fe’llar qo’yib gapni to’liq shakllantirish kabi mashqlardan foydalilaniladi.

To’rtinchi bosqich: 4-sinfda fe’lni o’rganish. Bu sinfda fe’lni o’rganishning vazifalari quyidagilar:

1. Fe'lning shaxs-son qo'shimchalari bilan tuslanishi, zamon qo'shimchasi bilan o'zgarishi haqidagi tushunchani berish va dastlabki ko'nikma hosil qilish; fe'lning leksik ma'nolari, bo'lishli va bo'lishsizligi, gapdagi vazifasi haqidagi bilimni chuqurlashtirish.
2. Nutqda fe'ldan ongli foydalanish malakasini rivojlantirish. Shu maqsadda nutqda ma'nodosh va zid ma'noli fe'llardan matn bilan bog'liq holda o'z va ko'chma ma'noda ishlatilgan fe'llar bilan tanishtirib borishga mashqlardan foydalanish.
3. Zamon qo'shimchalarining talaffuzi va yozilishi haqidagi ko'nikmani hosil qilish.
4. Qo'shma fe'llar va ularning doim alohida yozilishi haqidagi tushunchani berish va dastlabki ko'nikmani hosil qilish hisoblanadi.

XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilari lug`atini fe'llar bilan boyitish va nutqini o'sitirhs uchun fe'llarning ma'nosini o'z so'zlari bilan izohlash, undan nutqda foydalanishga ehtiyoj sezadigan vaziyatni yuzaga keltirish, fe'lning to`g`ri talaffuzi va imlosini o'zlashtirishlari uchun turli shakl va mazmundagi mashqlar bajartirish yaxshi natijalar beradi.

References:

1. S.Matchonov, X.Bakiyeva, X.G`ulomova, Sh.Yo`ldosheva, G.Xolboyeva. "Boshlang`ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" darslik. T.: "Ishonchli hamkor", 2021. 740 b.
2. G'afforova T. va boshqalar. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik. -T.2018.
3. Qosimova K. va boshqalar. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik. -T.2018.
4. Musayeva, S. I. (2024). ADVANTAGES AND DISADVANTAGES OF INTERACTIVE METHODS INTRODUCING THE CLT (COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING) APPROACH. World Scientific Research Journal, 32(1), 217-219.
5. Musayeva, S. I., & Mengliyeva, S. S. (2022). Kursantlarning madaniyatlararo rivojlantirish.
6. S.Fuzailov va boshqalar. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik.-T.2016.